

**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar
kafderasi o'qituvchilarining**

Master class

BAYONNOMASI

Maktab: Oltinsoy tumani 27-maktab

Sana: 2025-yil 16-mart

Mavzu: English Speaking Countries

Foydalanilgan fan: Ingliz tili

Sinf: 9-sinf

Master-class rahbarlari: Sobirjonova M., Temirova M., Mirzayeva G.

Davomiyligi: 45 daqiqa

Maqsad:

- Talabalarga ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar (Buyuk Britaniya, AQSh, Avstraliya va boshqalar) haqida ma'lumot berish.
- Talabalarning ingliz tilida so'zlash va tinglash ko'nikmalarini rivojlantirish.
- Madaniy xilma-xillikni anglash va global muhitda kommunikatsiya qobiliyatlarini oshirish.

DARS REJASI

1. Kirish (5 daqiqa)

- O'qituvchilar (M.Sobirjonova, M.Temirova, G.Mirzayeva) talabalar bilan salomlashadi va master classning maqsadini tushuntiradi.
- Mavzuning ahamiyati ta'kidlanadi: ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarning madaniyati, tarixi va til xususiyatlari.
- Talabalarga qisqa savol-javob o'tkaziladi: "Ingliz tilida qaysi mamlakatlar gaplashadi deb o'ylaysiz?"
- Darsda interfaol usullar (masalan, guruh ishi, prezentatsiya) qo'llanilishi e'lon qilinadi.

2. Asosiy qism (30 daqiqa)

Yangi mavzuni tushuntirish:

Ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar haqida umumiy ma'lumot:

Buyuk Britaniya: Tarixi, madaniyati, ingliz tilining kelib chiqishi.

AQSh: Ingliz tilining Amerika varianti, madaniy xususiyatlari.

Avstraliya: Ingliz tilining Avstraliya aksenti, mahalliy so'zlar.

Boshqa mamlakatlar (Kanada, Yangi Zelandiya) haqida qisqacha ma'lumot berildi.

Amaliy misol:

Har bir mamlakatdan bir nechta umumiy so'zlar va iboralar o'rgatiladi:

Buyuk Britaniya: "lorry" (yuk mashinasi), "flat" (xonadon); AQSh: "truck" (yuk mashinasi), "apartment" (xonadon); Avstraliya: "mate" (do'st), "barbie" (barbekyu). Talabalarga bu so'zlarni ishlatib, qisqa jumlar tuzish topshiriladi.

Interfaol qism:

Talabalar 3 guruhga bo'linadi, har bir guruhga bitta mamlakat (masalan, Buyuk Britaniya, AQSh, Avstraliya) beriladi. Har bir guruh o'z mamlakati haqida qisqa prezentatsiya tayyorlaydi (masalan, madaniyat, bayramlar yoki taniqli joylar haqida 2-3 jumla). O'qituvchilar guruhlarga yordam beradi, talaffuz va grammatik xatolarni tuzatadi. Har bir guruh o'z ishini sinf oldida ingliz tilida taqdim etadi.

3. Yakuniy qism (10 daqiqa)


O'rganilgan mavzu umumlashtiriladi: ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarning o'ziga xos xususiyatlari muhokama qilinadi. Talabalarning savollari tinglanadi va javob beriladi.

Uyga vazifa:

Bitta ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatni tanlab, u haqida 5-7 jumla incho yozish. O'rgatilgan yangi so'zlarni ishlatib, 3 ta jumla tuzish. Faol ishtirok etgan talabalar maqto'v bilan rag'batlantiriladi, kundaliklarga baholar qo'yiladi. Talabalarning ingliz tilida so'zlashishga bo'lgan ishtiyoqi oshdi.

Xulosa

Master-class darsi talabalarga ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar haqida chuqur tushuncha berdi va ularning til bilish, so'zlash va madaniy xabardorlik ko'nikmalarini rivojlantirdi. Dars faol va samarali o'tkazildi, talabalar yuqori darajada ishtirok etdi.



Master class rahbarlari:



**M.Sobirjonova
M. Temirova
G.Mirzayeva**